



# Xizmatlar sohasining rivojlanishi

(dastlabki ma'lumotlar)

2018 yil yanvar-may

## RAQAMLAR:


- 2018 yil yanvar-may oylarida bozor xizmatlari hajmi 2370,6 mlrd.so'mni tashkil etdi.
- Moliyaviy xizmatlarning o'sish sur'ati 115,6 % ni tashkil etdi.
- Aholi jon boshiga xizmatlar hajmi 1266,0 ming.so'mni tashkil etdi.

Innovatsion xizmatlarni joriy etish va an'anaviy xizmatlar sifatini oshirish bo'yicha maqsadli kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirilishi mamlakat iqtisodiyotida xizmatlar sohasining ulushining oshishiga olib keladi.

2018 yil yanvar-may oylarida dastlabki ma'lumotlarga ko'ra ko'rsatilgan xizmatlar hajmi 2370,6 mlrd.so'mga teng bo'ldi. O'tgan yilning mos davriga nisbatan o'sish sur'ati 104,9 % ni tashkil etdi.


Ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmida eng katta ulushni savdo xizmatlari (35,0 %) tashkil etadi.

## 2018 yil yanvar-may oylarida xizmatlar tarkibi (jami hajmga nisbatan, %)



Bugungi kunda xizmatlar sohasining tez rivojlanayotgan turlariga AKT va moliya-kredit muassasalarining xizmatlari taalluqlidir. Yangi texnologiyalar va bozorni erkinlashtirish natijalariga tayangan holda, ushbu faoliyat turlari so'nggi vaqtlarda rivojlanishning yangi bosqichiga chiqdi va hozir kunda jamiyatning texnologik taraqqiyoti va iqtisodiyotning globallashtirishida hal qiluvchi rol o'ynaydi.


### 2018 yil yanvar-may oylarida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha bozor xizmatlarining o'sish sur'ati, %



2018 yil yanvar-may oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (118,8 %); me'morchilik, muhandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar (115,7 %), moliyaviy xizmatlar (115,6 %); ta'lim sohasidagi xizmatlarda (111,9 %) eng yuqori o'sish sur'atlariga erishildi.

Savdo xizmatlari ko'rsatilgan umumiy xizmatlar hajmida eng yuqori hajmni - 828,7 mlrd.so'mni tashkil etadi. Bu xizmatlar shakli aholi va yuridik shaxslar tomonidan katta ehtiyojga ega ekanligini ko'rsatyapti.

### Ishlab chiqarilgan xizmatlar hajmining taqqoslanishi, mlrd.so'm



Shu bilan birga, transport xizmatlari hajmi - 618,8 mlrd.so'm, moliyaviy xizmatlar - 221,1 mlrd.so'm, aloqa va axborotlashtirish xizmatlari - 147,3 mlrd.so'mni tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan oshganligi qayd etildi.

**Buxoro viloyati**  
**Xizmatlar sohasi statistikasi bo'limi**

Mas'ul: S. Djabbarova

Tel: (65) 223-79-41